

«TASDIQLAYMAN»  
«Kapital Sug'urta» AJ  
Bosh direktori

  
X.A. Bo'rixo'jaev

2025 yil 12 fevral

## QARZ OLUVCHILARNI KUTILMAGAN VAZIYATLARDAN SUG'URTA QILISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy Oferta (keyingi o'rinlarda "Oferta" deb yuritiladi) «ANOR BANK» AJ bilan kredit shartnomasi (qarz/mikroqarz shartnomasi) tuzish niyatida bo'lgan jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan va "KAPITAL SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyatining Ofertada ko'rsatilgan shartlarda Sug'urtalovchining va Kreditorning rasmiy veb-sayti yoki Internet xizmati (avtomatlashtirilgan axborot tizimi, mobil ilovasi) orqali Qarz oluvchilarni kutilmagan vaziyatlardan sug'urtalash shartnomasini tuzish uchun yo'naltirilgan taklifi hisoblanadi..

Mazkur Oferta sug'urta polisini rasmiylashtirish sanasida amalda bo'lgan Qarz oluvchilarni kutilmagan vaziyatlardan sug'urtalash Qoidalari (keyingi o'rinlarda "sug'urta Qoidalari" deb yuritiladi) bilan tartibga solinadi. Sug'urta Qoidalari va ushbu Oferta [www.kapitalsugurta.uz](http://www.kapitalsugurta.uz) rasmiy veb-saytida va Sug'urtalovchining Internet xizmatlarida mavjud.

Sug'urta shartnomasining sub'ektlari Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) va Naf oluvchi (Kreditor) hisoblanadi.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va tegishli sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchining uning shartlarini qabul qilishga va Qarz oluvchini kutilmagan vaziyatlardan sug'urta qilish Shartnomasini tuzishga roziligini bildiradi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlaganidan so'ng, unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, ushbu Ofertani so'zsiz qabul qilish (akseptlash) ommaviy oferta shartlarini qabul qilish hisoblanadi, bu esa Sug'urta qildiruvchining:

- uning roziligini taklif shartlariga, shu jumladan sug'urta shartlariga rozilik bildiradi;
- *Ofertada ko'rsatilgan shartlarga, jumladan sug'urta shartlariga roziligini;*

- sug'urta polisini shakllantirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatishga, 5 yil muddatga sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov berish yo'li bilan uzatishga, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta'minlash bo'yicha sug'urta shartlariga ko'ra o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini ifodalaydi;

- sug'urta qilish paytida quyidagilarni tasdiqlaydi:

1-guruh nogironligi emasligi;

tashxis qo'yilgan ruhiy (asab) kasalliklariga ega emasligi;

OITS yoki yuqtirgan insoniy immunitet virusi (OIV tomonidan yuqtirilgan) bilan kassallanmaganligini;

tergov yoki qamoq jazosiga hukm qilinmaganligini.

Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan bo'lsa, shuningdek, Sug'urtalovchi tomonidan akseptni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo'lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

"Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" atamaları bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma'noga ega.

**OMMAVIY OFERTA**  
**SHARTLARI ASOSIDA TUZILGAN QARZ OLUVCHILARNI KUTILMAGAN**  
**VAZIYATLARDAN SUG'URTA QILISH SHARTNOMASINING (SUG'URTA POLISINING)**  
**ASOSIY SHARTLARI**

**1-BO'LIM. ASOSIY ATAMALAR**

1.1. Ushbu Ofertada qo'llanilgan asosiy atamalar va tushunchalar:

**Sug'urtalovchi** - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi "KAPITAL SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyati.

**Sug'urta qildiruvchi** - Sug'urtalovchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kiruvchi, sug'urta Shartnomasi (Oferta) bo'yicha sug'urta mukofotini to'lagan O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti hisoblangan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

**Sug'urtalangan shaxs** - kredit (qarz/mikroqarz) shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchi, birgalikda Qarz oluvchi yoki kafil bo'lgan, 18 yoshdan yuqori muomalaga layoqatli jismoniy shaxs. O'zining mulkiy manfaatlarini sug'urtalash to'g'risidagi bitimni tuzgan shaxs sug'urtalangan shaxs hisoblanadi.

Mazkur shartlarga muvofiq quyidagilar sug'urta himoyasiga olinmaydi:

1-guruh nogironlari;

tashxis qo'yilgan ruhiy (asab) kasalliklariga egalari;

OITS yoki yuqtirgan insoniy immunitet virusi (OIV tomonidan yuqtirilgan) bilan kassallanganlar;

tergov yoki qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar.

**Naf oluvchi (Kreditor)** – Sug'urtalangan shaxsiga (Qarz oluvchiga) kredit shartnomasida belgilangan shartlar va miqdorlarda pul mablag'larini ajratuvchi «ANOR BANK» AJ bo'lib, Qarz oluvchi esa olgan pul mablag'lari va unga hisoblangan foizlarni qaytrishga majbur.

**Sug'urta polisi** (bundan keyin "Polis" deb ataladi) - ushbu Oferta asosida Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi pdf grafik formatidagi elektron hujjat.

**Sug'urta puli** - sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta to'lovini amalga oshirish uchun Sug'urtalovchi majburiyatlarining maksimal miqdori bo'lgan pul mablag'lar summasi.

**Sug'urta mukofoti** - Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasida belgilangan tartib va muddatlarda to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

**Sug'urta voqeasi** - sug'urta hodisasi alomatlariga ega bo'lgan voqea.

**Sug'urta hodisasi** - ushbu Ofertada ko'zda tutilgan, Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatini yuzaga keltiruvchi voqea.

**Sug'urta to'lovi** – sug'urta hodisasi yuz berishi tufayli ushbu Ofertada belgilangan tartibda va sug'urta puli doirasida Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga to'lab beriladigan pul mablag'lari.

**Sug'urta muddati** – Sug'urta polisida ko'rsatilgan, Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini to'lash bo'yicha majburiyatlari amal qiladigan kunlar soni.

**Baxtsiz hodisa** – Sug'urtalangan shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmagan to'satdan, qisqa muddatli hodisa bo'lib, u inson tanasiga tashqaridan ta'sir qiladi va travmatik (tana) shikastlanishiga yoki boshqa sog'liq muammolariga olib keladi (ko'karishlar, cho'zilishlar, sinishlar, organlar va to'qimalarning yorilishi (yaralanishi), to'qimalar va ichki organlarning siqilishi, miya chayqalishi); kuyish, portlash, chaqmoq urishi, elektr toki urishi natijasida jismoniy shikastlanish; zaharli o'simliklar, sanoat va maishiy kimyoviy moddalar, oziq-ovqat mahsulotlari (botulizm, salmonellyoz, dizenteriya va oziq-ovqat toksik infeksiyasining boshqa turlari bundan mustasno), dori preparatlari bilan tasodifiy zaharlanish va/yoki nafas olish yoki zaharli va/yoki yonayotgan moddalar, bug'lar yoki gazlar bilan aloqa qilish natijasida paydo bo'lgan kuyishlar; muzlash, cho'kib ketish; tajovuzkorlarning yoki hayvonlarning hujumi, hasharotlar va sudraluvchilarning chaqishi; begona jismning nafas olish yo'llariga tasodifiy kirishi; transport vositalarining harakati (avtomobil, poezd, tramvay va boshqalar) yoki ularning halokati, mashina, mexanizmlar va barcha turdagi asboblardan foydalanish paytida olingan jarohatlar.

O'tkir paydo bo'lgan yoki surunkali kasallik va ularning tashqi omillar ta'siridan kelib chiqqan asoratlari yoki kuchayishi (ilgari tashxis qo'yilgani va birinchi marta aniqlangani), jumladan miokard infarkti, insult, anevrizmalar, o'smalar, organlarning funksional etishmovchiligi, organlarning tug'ma anomaliyalari baxtsiz hodisa hisoblanmaydi.

**Doimiy to'liq mehnat qobiliyatining yo'qolishi (nogironlik)** – sug'urta muddati davomida Ofertada nazarda tutilgan baxtsiz hodisa yoki kasalliklar (xizmat vazifalarini bajarish paytidagi jarohatlar, kasb kasalliklar) natijasida Sug'urtalangan shaxsning tana funksiyalarining doimiy buzilishi bilan sog'lig'ining izdan chiqishi tufayli II-guruh nogironligini belgilashiga olib kelgan mehnat qobiliyatining yo'qotilishi

**Sug'urta hududi** - O'zbekiston Respublikasi.

**Axborot tizimi** - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, shuningdek boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari va markaziy ma'lumotlar bazasi, jismoniy va yuridik shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazalari.

1.2. Ushbu Ofertada foydalanilgan barcha ta'riflar Ofertada ular uchun belgilangan ma'noga ega. Ushbu Ofertadagi ta'rif (atama) uchun ma'no bo'lmagan taqdirda, ularning ma'nosi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## **2-BO'LIM. SUG'URTA OB'EKTI**

2.1. Sug'urtalangan shaxsning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmagan, baxtsiz hodisa tufayli uning sog'lig'iga zarar etkazilishi hamda o'limi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

## **3-BO'LIM. SUG'URTA HODISALARI**

3.1. Mazkur Oferta shartlariga ko'ra sug'urta to'voni to'lovi quyidagi hodisalardan biri yoki birgalikda sodir bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi:

- baxtsiz hodisa yoki kasallik (xizmat vazifalarini bajarish paytidagi jarohatlar, kasbiy kasalliklar) tufayli Sug'urtalangan shaxsning doimiy to'liq mehnat qobiliyatini yo'qotishi (I guruh nogironligi);

- baxtsiz hodisa tufayli yuzaga kelgan Sug'urtalangan shaxsning o'limi.

3.2. Ushbu Ofertaning 3.1.-bandida ko'rsatilgan sug'urta xavfining yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan, sug'urta muddati va hududida Sug'urtalangan shaxs bilan yuz bergan va tegishli vakolatli organlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan, buning natijasida Sug'urtalovchining sug'urta to'vonini to'lash majburiyatining yuzaga kelishi sug'urta hodisasi bo'lib hisoblanadi.

3.3. Sug'urta hodisasi sanasi bo'lib:

- Sug'urtalangan shaxsning o'limi yuzaga kelgan sana;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda Sug'urtalangan shaxsning tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi tekshirishidan o'tgan sanasi.

3.4. Sug'urta muddati davomida baxtsiz hodisa yoki kasallik (xizmat vazifalarini bajarish paytida jarohatlar, kasbiy kasalliklar) bo'lmagan voqealardan Sug'urtalangan shaxsning sug'urta shartnomasi tuzilgan (polis berilgan) sanada mavjud bo'lgan nogironlik guruhining og'irlashishi tufayli unga I- guruh nogironligining belgilanishi sug'urta hodisasi hisoblanmaydi.

## **4-BO'LIM. SUG'URTA QOPLAMASIDAN ISTISNOLAR**

4.1. Quyidagilar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita sabab bo'lganda, ular sug'urta hodisasi deb tan olinmaydi:

a) sug'urtalangan shaxsning harbiy harakatlarda yoki harbiy tadbirlarda ishtirok etishi va ularning oqibatlari, ommaviy tartibsizliklar va ish tashlashlar, harbiylar tomonidan hokimiyatni egallab olish yoki hokimiyatni noqonuniy egallab olish, bir guruh hujumchilar yoki siyosiy tashkilotlar nomidan ish yurituvchi yoki ular bilan o'zaro aloqada bo'lgan shaxslarning harakatlari, fitna;

b) yadroviy portlash, radiasiya va radioaktiv infeksiya;

v) Sug'urta qildiruvchining/Sug'urtalangan shaxsning sug'urta hodisasi sodir bo'lishiga qaratilgan qasddan, noqonuniy xatti-harakatlari va (yoki) harakasizligi, Sug'urtalangan shaxsning garov va jinoyatlarda, shuningdek jinoyat harakatlar, mushtlashuvda ishtirok etishi, Sug'urta qildiruvchi / Sug'urtalangan shaxs yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog'liq harakatlar bundan mustasno;

g) Sug'urta qildiruvchi / Sug'urtalangan shaxs / Naf oluvchi tomonidan Sug'urtalovchiga soxta ma'lumotlar xabarlanishi;

d) Sug'urtalangan shaxsning professional darajadagi sport turlari, shu jumladan musobaqalar va mashg'ulotlar, shuningdek hayot va sog'liq uchun bevosita yuqori xavf tug'diruvchi xavfli (ekstremal) sport turlari bilan shug'ullanishi (jangovar sport turlari, chang'i uchish, fristayl, snoubord, bobsley, chana sporti, skeleton, skeytbord, skaysyorfing, snoukayting, serfing, veykbording, tog' bordingi, motor sporti, suv sporti, alpinizm, erkin yiqilish, shu jumladan havo transporti, tog' velosipedi, fristayl, daunxill, rolikli, balandlikka sakrash va boshqalar);

e) Sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa paytida alkogol, toksik yoki giyohvandlik moddadan mast holatida bo'lishi;

j) Sug'urtalangan shaxsning o'z joniga qasd qilishi yoki suiqasd qilishga urinishi. Agar Sug'urtalangan shaxsning o'limi u o'z joniga qasd qilish oqibatida ro'y bergan bo'lsa va o'sha paytgacha kelib sug'urta shartnomasi ikki yildan ortiq muddat davomida amal qilayotgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta to'voni to'lovidan ozod etilmaydi.

z) tashhis, davolash va profilaktika choralarining (shu jumladan, dorilarni in'eksiya qilish) zararli oqibatlari, agar ular tan jarohatlarining oqibatlarini davolash bilan bog'liq bo'lmasa;

i) texnik xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va sanoat sanitariya normalari qo'pol ravishda buzilganda;

k) sug'urta Shartnomasini tuzish paytida Sug'urtalangan shaxsda bor bo'lgan yurak-qon tomir tizimi, diabet, nevrologik kasalliklarning kuchayishi yoki xurujlari;

l) yurak xuruji (hech qanday holatda yurak xuruji baxtsiz hodisa oqibati deb hisoblanmaydi);

m) elektromagnit va (yoki) ionlashtiruvchi nurlanish.

4.2. Barcha turdagi kasalliklar, shu jumladan yuqumli kasalliklar, jumladan OIV infeksiyasi, OITS, har qanday jinsiy yoʻl bilan yuqadigan kasalliklar, organlarning disfunktsiyasiga va kosmetik buzilishga olib kelmaydigan hamda chandiq qoldirmaydigan kichik tirnalishlar, koʻkarishlar, teri osti gematomalari, koʻkarishlar baxtsiz hodisa deb tan olinmaydi.

4.3. Shuningdek, Sugʻurtalovchi Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sugʻurta toʻlovidan ozod qilinadi.

#### **5-BOʻLIM. SUGʻURTA PULI VA SUGʻURTA MUKOFOTI. SUGʻURTA MUKOFOTINI TOʻLASH SHAKLI VA TARTIBI.**

5.1. Sugʻurta puli quyidagi tartibda belgilanadi va Sugʻurta polisida koʻrsatiladi:

- kredit shartnomasi (qarz/mikroqarz shartnomasi) tuzilgan paytdagi dastlabki kredit summasi miqdorida;
- kredit shartnomasi (qarz/mikroqarz shartnomasi) tuzilgan paytdagi dastlabki kredit summasining 125% gacha oshirilgan miqdorida.

5.2. Sugʻurta shartnomasi (polisi) amal qilish davrida sugʻurta puli qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi boʻyicha qarzni soʻndirish jadvaliga muvofiq kamayib boradi va sugʻurta hodisasi sodir boʻlgan kundagi kredit shartnomasi va qarz soʻndirish jadvali boʻyicha dastlabki sugʻurta pulidan koʻp boʻlmagan joriy qarz qoldigʻiga teng boʻladi.

5.3. Aniq bir sugʻurta shartnomasi (polisi) boʻyicha sugʻurta mukofoti Sugʻurtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan sugʻurta tariflari asosida hisoblanadi, bunda sugʻurta obekti, sugʻurta xavfi xususiyatlari va boshqa shartlar inobatga olinadi.

5.4. Elektron polisini rasmiylashtirish vaqtida sugʻurta mukofoti Sugʻurtalovchining yoki Naf oluvchining rasmiy veb-sayti/mobil ilovasida yoki axborot tizimida real vaqt rejimida aks ettiriladi va Sugʻurta qildiruvchi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi milliy valyutasi – “soʻm”da bir martalik toʻlov sifatida Sugʻurtalovchining hisob raqamiga toʻlov tizimlari operatorlari orqali oʻtkaziladi.

#### **6-BOʻLIM. SHARTNOMANING (POLISNING) KUCHGA KIRISHI VA UNING AMAL QILISH MUDDATI**

6.1. Sugʻurta shartnomasi (polisi) tomonlarning kelishuviga koʻra kredit shartnomasi muddati va uning toʻlov jadvaliga muvofiq tuzilishi mumkin.

6.2. Sugʻurta polisi elektron shaklda rasmiylashtiriladi va Sugʻurta qildiruvchi tomonidan aksept qilingan (qabul qilingan) paytdan boshlab berilgan hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, Sugʻurta qildiruvchi tomonidan ushbu Ofertada belgilangan tartibda va muddatda sugʻurta mukofotining toʻlanishi tasdigʻi polis akseptlanganligini bildiradi. Sugʻurta mukofotini toʻlash (Polisni akseptlash) orqali Sugʻurta qildiruvchi Polisni, Sugʻurtalovchi tomonidan ushbu Ofertada bayon qilingan sugʻurta shartlarida soʻzsiz qabul qilishga roziligini bildiradi. Sugʻurta qildiruvchi tomonidan pdf shaklidagi elektron sugʻurta Polisining qabul qilinishi, polis Sugʻurta qildiruvchiga oʻrnatilgan tartibda etkazilganligini bildiradi.

6.3. Sugʻurta qildiruvchi (Sugʻurtalangan shaxs) sugʻurta polisining haqiqiylikini [www.kapitalsugurta.uz](http://www.kapitalsugurta.uz) saytida polis seriyasi va raqamini kiritish yoki polisidagi QR-kodni skanerlash orqali tekshirish huquqiga ega.

6.4. Sugʻurtalovchining sugʻurta toʻlovi boʻyicha majburiyatlari sugʻurta mukofoti Sugʻurtalovchining hisob raqamiga oʻtkazilgan kunning soat 00:00 dan kuchga kiradi va polisda koʻrsatilgan sugʻurta muddati tugash sanasining 23:59 gacha amal qiladi.

6.5. Sugʻurtalovchi sugʻurta polisi kuchga kirishidan oldin sodir boʻlgan holatlar uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olmaydi.

#### **7-BOʻLIM. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA UNI TOʻXTATISH**

7.1. Sugʻurta shartnomasi (polisi) uning amal qilish muddati tugashi bilan toʻxtatiladi.

7.2. Sugʻurta shartnomasi (polisi) belgilangan muddat tugashidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

7.2.1. Sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasiga binoan oʻz majburiyatlarini toʻliq bajarganda;

7.2.2. Sugʻurta qildiruvchi (Sugʻurtalangan shaxs/Qarz oluvchi) kredit shartnomasiga koʻra majburiyatlarini muddatidan oldin toʻliq bajarganda va sugʻurta puli nolga teng boʻlganda;

7.2.3. Sugʻurta qildiruvchi kredit shartnomasi boʻyicha Kreditor oldidagi majburiyatlarini muddatidan oldin toʻliq bajarganligi tufayli sugʻurta shartnomasidan (polisidan) voz kechganida (kredit shartnomasi/qarz (mikroqarz) shartnomasi boʻyicha qarzdorlik oldindan toʻliq soʻndirilganda);

7.2.4. qonunchilikda koʻzda tutilgan tartibda tomonlarning tadbirkorlik faoliyati tugatilganda;

7.2.5. ushbu sugʻurta shartlari boʻyicha sugʻurta hodisasi hisoblanmaydigan holda Sugʻurtalangan shaxs vafot etgan boʻlsa;

7.2.6. Tomonlarning kelishuvi asosida;

7.2.7. Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

7.3. Ushbu Ofertaning 7.2.3. koʻrsatilgan holatlar mavjud boʻlganda, Sugʻurtalovchi sugʻurta mukofotining bir qismini quyidagicha hisoblangan tartibda qaytaradi:

- agar Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasidan (polisidan) u kuchga kirgan kundan boshlab, 5 (besh) kalendar kuni ichida voz kechsa, to'lov to'langan sug'urta mukofotidan 60% (oltmish foiz)ni chegirgan holda amalga oshiriladi;

- agar Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasidan (polisidan) u kuchga kirgan kundan boshlab, 5 (besh) kalendar kundan keyin voz kechsa, to'lov to'langan sug'urta mukofotidan 60% (oltmish foiz)ni hamda muddati o'tgan sug'urta davri uchun summani chegirgan holda amalga oshiriladi.

7.4. Sug'urta mukofoti (uning qismi) Sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasidan (polisidan) voz kechishi xaqidagi arizasi Sug'urtalovchiga kelib tushgan kundan boshlab, 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida qaytariladi.

7.5. Agar sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha sug'urta hodisasi yuzasidan da'vo qilingan yoki sug'urta to'lovi amalga oshirilgan bo'lsa, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

7.6. Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasini istalgan vaqtda bekor qilish huquqiga ega, agar shu vaqtda sug'urta hodisasi yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo'lmasa. Bunday holda, Sug'urtalovchi sug'urta mukofotini (uning qismini) qaytarish majburiyatini olmaydi.

## **8-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **8.1. Sug'urtalovchining huquqlari:**

a) o'z vakolatlari doirasida sug'urta hodisasi yoki uning sodir bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tegishli tashkilotlardan so'rash;

b) Naf oluvchidan kredit shartnomasi (qarz/ mikromoliyaviy qarz shartnomasi) bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qilish;

b) Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga ataylab noto'g'ri ma'lumot bergani aniqlansa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sug'urta shartnomasini (polisini) haqiqiy emas deb topishni va oqibatlarini qo'llashni talab qilish. Agar Sug'urta qildiruvchi yashirgan holatlar o'z dolzarbligini yo'qotgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi;

g) sug'urta hodisasi yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan taqdirda, tegishli organlar tomonidan rasmiy qaror qabul qilinmaguncha sug'urta to'lovi bo'yicha qarorni kechiktirish;

d) sug'urta to'lovini rad etish, agar:

- Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) Sug'urtalovchiga sug'urta xavfining darajasi yoki sug'urta hodisasi yuz berishi bo'yicha noto'g'ri yoki haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim qilgan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) sug'urta shartnomasida (Ofertada) belgilangan muddatda sug'urta hodisasi haqida xabar bermagan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalangan shaxsning hayoti va sog'lig'iga etkazilishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirish uchun qasddan o'ziga bog'liq chora-tadbirlarni ko'rmagan bo'lsa;

- Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) sug'urta hodisasi sabablari va tafsilotlarini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim qilmagan bo'lsa;

- yuz bergan hodisa ushbu Ofertada nazarda tutilgan sug'urtadan istisnolar qamroviga kirmasa.

e) ushbu Oferta, sug'urta Qoidalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

### **8.2. Sug'urtalovchining majburiyatlari:**

a) sug'urta polisini belgilangan muddatda Sug'urta qildiruvchiga taqdim etish;

b) sug'urta masalalari bo'yicha Sug'urta qildiruvchiga maslahat berish;

v) sug'urta shartnomasi (polisi) amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash, Sug'urtalovchining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan davlat organlariga ma'lumot taqdim etish majburiyati bundan mustasno;

g) barcha zarur hujjatlarni olinganidan so'ng va sug'urta hodisasi fakti tasdiqlanganidan keyin sug'urta to'lovini ushbu Ofertada belgilangan tartib va muddatda amalga oshirish;

Mazkur muddat Sug'urta qildiruvchi taqdim etgan hujjatlarning tekshirilishi yoki qo'shimcha ma'lumotlarning vakolatli organlardan olinishi zarurati tug'ilganda uzaytirilishi mumkin, bu haqda Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchini xabardor qiladi.

### **8.3. Sug'urta qildiruvchining (Sug'urtalangan shaxsning) huquqlari:**

a) Sug'urtalovchidan sug'urta masalalari bo'yicha maslahat olish;

b) ushbu Oferta, sug'urta Qoidalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

### **8.4. Sug'urta qildiruvchining (Sug'urtalangan shaxsning) majburiyatlari:**

a) sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng, sug'urta hodisasi xavf darajasini oshirishi mumkin bo'lgan muhim o'zgarishlar haqida sug'urtalovchini darhol xabardor qilish;

b) sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash;

v) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, belgilangan muddatda Sug'urtalovchini istalgan mavjud vositalar orqali xabardor qilish.

Agar sug'urta shartnomasi Naf oluvchi foydasiga tuzilgan bo'lsa, ushbu majburiyat Naf oluvchiga ham taalluqlidir.

#### 8.5. Naf oluvchining huquqlari:

- a) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, sug'urta shartnomasi (oferita) shartlariga muvofiq sug'urta tovonini olish;
- b) sug'urta shartnomasiga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) kiritish haqida Sug'urtalovchiga yozma murojaat qilish;
- v) sug'urta polisi amal qilish muddati davomida Sug'urtalovchidan sug'urta shartlari bo'yicha maslahat olish.

#### 9-BO'LIM. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

9.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) doirasida Sug'urtalovchiga sug'urta to'lovini amalga oshirish talabini qo'yish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa sodir bo'lganida, Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchi quyidagilarni bajarishi shart:

- hodisa sodir bo'lgan kundan boshlab kechikmasdan, biroq 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Sug'urtalovchiga baxtsiz hodisa sabablari va tafsilotlari bayon etilgan yozma ariza bilan murojaat qilish, yoki agar Sug'urtalangan shaxs stasionar davolanishda bo'lgan bo'lsa, u holda kasalxonadan chiqish kundan boshlab 10 ish kuni ichida murojaat qilishi shart.

9.2. Sug'urta hodisasi yuz berganligi haqida yozma arizaga Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchi quyidagi hujjatlarni ilova qilishi lozim:

9.2.1. **Baxtsiz hodisa yoki kasallik natijasida (xizmat vazifalarini bajarish paytida olingan jarohatlar, kasbiy kasalliklar) Sug'urtalangan shaxs doimiy to'liq mehnat qobiliyatini yo'qotganda (I guruh nogironligi):**

- a) shaxsini tasdiqlovchi hujjat (nusxa);
- b) baxtsiz hodisa yuz berganligini tasdiqlovchi, hodisaning sabablari va hududi to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan hujjat (Sug'urtalangan shaxsning tibbiyot kartasi yoki kasallik tarixidan ko'chirma, stasionar bemorining tibbiyot kartasi, sud-tibbiy ekspertiza xulosasi va boshqa hujjatlar) (nusxa);
- v) N-1 shaklidagi dalolatnoma (agar shaxs xizmat vazifalarini bajarish jarayonida jarohat olgan bo'lsa) (nusxa);
- g) sug'urta hodisasi alomatlariga ega voqeaning ro'y berganligi xaqida Sug'urtalovchini ogohlantirish sanasiga kredit shartnomasi (mikroqarz shartnomasi) bo'yicha Sug'urtalangan shaxs tomonidan asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo'yicha so'ndirilmagan qarzдорlikning miqdori to'g'risidagi Kreditor (Naf oluvchi) ma'lumotnomasi (xati);
- d) kredit shartnomasi (qarz/mikroqarz shartnomasi) va to'lov jadvali (nusxa);
- e) jinoiy huquqbuzarlik belgilari mavjud bo'lsa – baxtsiz hodisani tasdiqlash, o'zaro bog'liqlikni aniqlashtirishga vakolati bo'lgan tegishli organning hujjati (jinoiyat yoki ma'muriy ish qo'zg'atish yoki rad etish to'g'risidagi qaror nusxasi, ishni to'xtatish yoki tugatish to'g'risidagi qaror, sud qarori/hukmi, ish beruvchi tomonidan tuzilgan, Sug'urtalangan shaxs o'z xizmat vazifalarini bajarishida yuz bergan baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma, yong'in xavfsizligi xulosasi) (nusxa);
- j) sug'urta hodisasiga taalluqli, Sug'urtalovchi talab qilishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar, agar aniq shart-sharoitlarga ko'ra ularning yo'qligi sug'urta hodisasini tan olishga to'sqinlik qilayotgan bo'lsa.

9.2.2. **Baxtsiz hodisa natijasida Sug'urtalangan shaxs vafot etganda:**

- a) voqeaning sabablari va joyi haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan, Sug'urtalangan shaxsning o'limi to'g'risidagi hujjat (Sug'urtalangan shaxsning tibbiyot kartasi yoki kasallik tarixidan ko'chirma, stasionar bemorining tibbiyot kartasi, sud-tibbiy ekspertiza xulosasi va boshqa hujjatlar) (nusxa);
- b) Sug'urtalangan shaxsning o'limi to'g'risidagi guvohnoma yoki o'limning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi xabarnoma (nusxa);
- v) Sug'urtalangan shaxs vafot etgan deb topilganligi haqidagi sud qarori (nusxa);
- g) Sug'urtalangan shaxsning o'limi sanasiga kredit shartnomasi (qarz shartnomasi) bo'yicha asosiy qarz qoldig'i miqdori haqida Kreditor (Naf oluvchi) ma'lumotnomasi (xati) (nusxa);
- d) kredit shartnomasi (qarz/mikroqarz shartnomasi) va to'lov jadvali (nusxa);
- e) jinoiy huquqbuzarlik belgilari mavjud bo'lsa va o'lim baxtsiz hodisa natijasida yuz bergan bo'lsa, hodisani tasdiqlash, o'zaro bog'liqlikni aniqlashtirishga vakolati bo'lgan tegishli organning hujjati (jinoiyat yoki ma'muriy ish qo'zg'atish yoki rad etish to'g'risidagi qaror nusxasi, ishni to'xtatish yoki tugatish to'g'risidagi qaror, sud qarori/hukmi, ish beruvchi tomonidan tuzilgan, Sug'urtalangan shaxs o'z xizmat vazifalarini bajarishida yuz bergan baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma, yong'in xavfsizligi xulosasi) (nusxa);
- j) sug'urta hodisasiga taalluqli, Sug'urtalovchi talab qilishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar, agar aniq shart-sharoitlarga ko'ra ularning yo'qligi sug'urta hodisasini tan olishga to'sqinlik qilayotgan bo'lsa.

9.3. Barcha tibbiyot muassasalari tomonidan berilgan hujjatlar muassasaning muhri va vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

9.4. Zarur bo'lganda, Sug'urtalovchi hodisaning tafsilotlarini aniqlash uchun qo'shimcha hujjatlar talab qilish huquqiga ega.

9.5. Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs), Naf oluvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisaning holatlarini tekshirishda yordam berishi va sug'urta xavfi, sug'urta hodisasi hamda uning oqibatlarini bo'yicha aniq ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishi shart.

9.6. Sug'urta hodisasi yuz berganligini isbotlash va uning keltirgan zararlari hajmini aniqlash majburiyati Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) va Naf oluvchi zimmasida bo'ladi.

9.7. Sug'urtalovchi hodisa bilan bog'liq barcha tafsilotlarni o'rganib chiqqandan so'ng, ushbu hodisani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror qabul qiladi.

## **10-BO'LIM. ZARAR MIQDORINI ANIQLASH VA SUG'URTA TO'LOVINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**

10.1. Sug'urta to'lovi faqatgina avvalroq yuz bergan sug'urta hodisalaridan biri bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta to'lovining miqdori sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha dastlabki sug'urta pulidan oshib ketmasligi kerak.

10.2. Sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, sug'urta to'lovi Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga (Kreditorga) kredit shartnomasi (qarz/mikroqarz shartnomasi) va to'lov jadvaliga muvofiq sug'urta hodisasi ro'y bergan sanaga Sug'urtalangan shaxsning joriy qarzi (haqiqatdagi) qoldig'i miqdorida, lekin dastlabki sug'urta pulidan oshmagan holda amalga oshiriladi.

Sug'urtalangan shaxsning qarzi miqdori Kreditorning (Naf oluvchining) sug'urta hodisasi sanasiga kredit shartnomasi va to'lov jadvaliga muvofiq so'ndirilmagan kredit (asosiy qarz) qismi va to'lanmagan foizlar miqdori haqidagi yozma tasdiqnomasi asosida aniqlanadi.

10.3. Sug'urta to'lovi quyidagilar kirmaydi:

- kredit shartnomasi (qarz shartnomasi) bo'yicha har qanday komissiya yoki mukofot pullari;

- kredit shartnomasi (qarz shartnomasi) bo'yicha kechiktirilgan yoki o'z vaqtida to'lanmagan to'lovlar uchun hisoblangan penyalari, jarimalar, o'stirilgan foizlar.

10.4. Sug'urta to'lovi Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) va Naf oluvchi tomonidan ushbu Ofertaning 9-bo'limida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etilganidan va sug'urta hodisasi haqida dalolatnoma tuzilgandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Naf oluvchining bank hisobraqamiga naqdsiz shaklda pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10.5. Sug'urtalovchining sug'urta to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxs/Naf oluvchiga, ular sug'urta to'lovi uchun murojaat qilgan kundan boshlab, 15 (o'n besh) kun ichida xabardor qilinishi va rad etishning asoslantirilgan sabablarini o'z ichiga olishi kerak.

## **11-BO'LIM. SUBROGASIYA**

11.1. Sug'urtalovchi sug'urta to'lovini amalga oshirgandan so'ng, u Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) yoki boshqa sug'urta to'lovini olgan shaxsning zarar uchun javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan da'vo qilish huquqiga ega bo'ladi.

11.2. Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) Sug'urtalovchiga da'vo qilish huquqini amalga oshirish uchun barcha hujjatlarni taqdim etishi va zarur choralarni ko'rishi shart. Agar Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) ushbu huquqdan voz kechsa yoki uning amalga oshirilishi uning aybi bilan imkonsiz bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta to'lovini amalga oshirishdan bosh tortishi mumkin.

11.3. Agar Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) uchinchi shaxslardan zarar uchun tovon puli olgan bo'lsa, Sug'urtalovchi faqat sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summa va uchinchi shaxsdan olingan summa o'rtasidagi farqni to'laydi.

## **12-BO'LIM. BOSHAQA SHARTLAR**

12.1. Qarz oluvchini kutilmagan vaziyatlardan sug'urtalash bo'yicha elektron sug'urta shartnomasining boshqa shartlari sug'urta shartnomasining amal qilish muddati davomida kuchda bo'lgan Qarz oluvchini sug'urta qilish Qoidalariga muvofiq belgilanadi.

12.2. Tomonlar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

12.3. Agar Tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarmasligi engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, ular javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holati yuzaga kelgan Tomon zudlik bilan ikkinchi Tomonni ushbu holat va uning kutilayotgan muddati to'g'risida xabardor qilishi shart.

12.4. Sug'urta shartnomasi (polisi) va ushbu Ofertada nazarda tutilgan masalalar bo'yicha nizolar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish choralari ko'radilar.

12.5. Agar tomonlar muzokaralar orqali tinch yo'l bilan kelishmasa, Sug'urta shartnomasi tuzilishi (rasmiylashtirilishi), o'zgarishi, tugatilishi, bekor bo'lishi, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi (to'liq yoki qisman) bilan yuzaga kelgan yoki kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar va da'volar Sug'urtalovchining

ixtiyori bilan fuqarolik ishlarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra Sug'urtalovchining davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyidagi sud tartibida hal etiladi.

12.6. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Tomonlar ushbu sug'urta doirasida elektron shaklda tuzilgan barcha hujjatlarni (elektron sug'urta shartnomasi (Oferta, polis), hisob-varaqa, dalolatnoma, ma'lumotlar, hujjatlar va boshq.), ularni qog'ozdagi hujjatlarga tenglashtirgan, qo'l bilan imzolangan va tegishli Tomonning muhri bilan tasdiqlangan, agar ushbu elektron hujjatlar Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra elektron hisob-varaqlar aylanmasi tizimining operatorlaridan biri (ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun ruxsat olgan axborot vositachisi) tomonidan qayta ishlangan va yuborilgan bo'lsa, barcha hujjatlarning yuridik kuchini kelishib oladilar va tan oladilar.

12.7. Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti Sug'urta qildiruvchi va ushbu axborot tizimining operatori bo'lgan Sug'urtalovchi o'rtasida elektron shaklda ma'lumotlar almashinuvi, shu jumladan sug'urta shartnomasini tuzish uchun ariza yuborishni ta'minlash, shartnoma tuzish (sug'urta polisini yuborish), o'zgartirish, muddatidan oldin bekor qilish, sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida xabar berish, sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizalar, ko'rib chiqish bosqichi va natijalari to'g'risida ma'lumot yuborish, sug'urta tovonini to'lovi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi hisoblanadi. Sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqealar yuz bergan taqdirda, polisda yoki saytda ko'rsatilgan telefon orqali voqea haqida xabar berishingiz yoki "KAPITAL SUG'URTA" AJning eng yaqin ofisiga (filialiga) murojaat qilishingiz lozim.

Filiallarining manzillari, telefonlari va ish vaqti Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan.

**Sug'urtalovchining rekvizitlari:**

"KAPITAL SUG'URTA" Aksiyadorlik Jamiyati

Lisenziyasi: 2021 yil 20 yanvardagi 00010-sonli

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent sh.,

Mirzo Ulug'bek tumani, Mahatma Gandi ko'ch., 44 uy

Tel: 998 71 200 1100

H/r: 220216 000 6001 3803 7001

Bank: Anor Bank» AJ

Bank kodi: 01183 IFUT: 65120 STIR: 200638670

Rasmiy veb-sayt: [www.kapitalsugurta.uz](http://www.kapitalsugurta.uz)

Elektron pochta manzili: [info@go.kapitalsugurta.uz](mailto:info@go.kapitalsugurta.uz)